**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KILICHEV AKRAM ABDUSAMADOVICH**

# O‘ZBEK VA RUS XALQ MAQOLLARIDA “AYOL” KONSEPTI

**10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**УЎК: 811.512.133+161.1:398.9**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral of philosophy(PhD) on philological sciences**

**Kilichev Akram Abdusamadovich**
O‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konsepti ..... 3

**Киличев Акрам Абдусамадович**
Концепт “женщина” в узбекских и русских народных пословицах ..... 21

**Kilichev Akram Abdusamadovich**
The concept of “woman” in Uzbek and Russian folk proverbs ..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works ..... 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KILICHEV AKRAM ABDUSAMADOVICH**

# O‘ZBEK VA RUS XALQ MAQOLLARIDA “AYOL” KONSEPTI

**10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil12945 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Jo‘raeva Bibish Muxsinovna**<br>filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Maxmaraimova Shoxista To‘xtashevna**<br>filologiya fanlari doktori (DSc), professor |
| | **Mo‘minov Fayzullo Abdullaevich**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Jizzax davlat pedagogika universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil __oktabr soat 9-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil ____ _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil ____ _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi.)

**B.E.Kilichev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**M.Y.Xojiyeva**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G.I.Toirova**
lmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida gender konseptlarini o‘rganish, etnos aqliy kodining integral xususiyatlarini ta’riflash, jamiyatning kognitiv tasavvurlarini aniqlash, konseptlar maydoni modellari va yadro-periferik tuzilmalarining milliy o‘ziga xosligini o‘rganish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Markazida inson va lisoniy shaxs ifodalanish usullari turgan antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi, “gender xususiyatlar va til ko‘rinishlari”, gender-kognitiv paradigma nuqtayi nazaridan gender konseptosfera deskripsiyasi, paremiologik birliklarda muhim o‘ringa ega gender tarkibiy qismi, kognitiv semantika, gender vektori kognitiv tilshunoslikning barcha bo‘limlariga kirib bormoqda va kognitiv tilshunoslik tezaurusiga “gender” terminining kiritilishi “ayol” konsepti ko‘lamida til shaxsining fiziologik, ijtimoiy va aqliy belgilarini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida zamonaviy antroposentrik paradigma doirasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, gender tarkibiy qismli konseptosferalarni birlashtirish, aqliy ongning shakllanish quroli sifatida til kognitiv ko‘lamini aniqlashga, gender konseptosferani qiyosiy asosini ishlab chiqishga, “ayol” konseptining segment xususiyatlari, muammolariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu kognitiv jihatga urg‘u bergan holda kognitiv va gender tahlil metodikalarini birlashtirish, ikkala fan tushunchalari apparatini samarali qo‘llash, aqliy qurilmalarning differensial belgilarini har taraflama qamrab olish, milliy konseptosferalar mazmunida gender belgilarni qayta qurish, “ayol” konseptining tayanch konseptlar maydoni modelini yaratish va baholashga nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillik milliy tilshunoslikni jahondagi ilg‘or mezonlar asosida rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni yaratish bilan birga, ushbu mezonlarga ko‘p asrlik milliy dunyoqarashimizdan kelib chiqib munosabat bildirish mas’uliyatini ham yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini oshirish, ularga turli mas’ul vazifalarni ishonib topshirishga qaratilgan siyosatni yanada faol davom ettiramiz[1]”. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish o‘zbek va rus paremiologiyasida “ayol” konseptining o‘ziga xosligini qiyosiy tahlil qilish talabini qo‘yadi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida nafaqat texnologik sohadagi yuksalish, balki jamiyatda ayol mavqeyining tubdan qayta shakllanishi ham yuz berdi. Ayol jamiyatning to‘laqoni a’zosi, o‘z huquqlariga ega bo‘lgan shaxs ekanligini baralla aytishga imkon topdi. Bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklar mazkur konsept strukturasi va mohiyatini ham o‘zgartirib yubordi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 2-fevraldagi PF-5938-son “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va

[1] Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонунлар устуворлиги - ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. Конституция қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаи РУз.7.12.2019. https://president.uz/ru/lists/view/3119

oila institutini mustahkamlash sohasida faoliyatni tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekiston yangi rivojlanish davrida ta’lim, tarbiya va fan sohalarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa muvofiq me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida antroposentrik tilshunoslikning asosiy qoidalarini ishlab chiqish va aniqlashtirishga amerikalik tilshunoslar Dj.Bruner, Dj.Miller, N.Xomskiy, Ch.Fillmor, R.Djekendoff, R.Lakoff, Dj.Lakoff, U.Cheyf, L.Talmi, R.Langakker[2] katta hissa qo‘shgan. Ularning ilmiy tadqiqotlari yordamida antroposentrik tilshunoslik o‘z predmeti, tuzilmasi va kategorial apparatiga ega bo‘ldi.

Rus tilshunosligida antroposentrik tilshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanishi Y.S.Kubryakova, V.Z.Demyankov, N.N.Boldirev, Y.G.Pankras, V.V.Petrov, Z.D.Popova, I.A.Sternin, R.M.Frumkina, V.I.Karasik va boshqa olimlar faoliyati bilan bog‘liq. Turli tillardagi gendereologik konseptual ifodalanishning o‘ziga xosligi A.A.Grigoryan, I.V.Zikova, L.I.Grishayeva, I.I.Xaleyev, M.D.Gorodnikova[3] ishlarida o‘z aksini topgan. Mavzuga oid

[2] Bruner J. Founding the Center for cognitive studies. – Cambridge, 1988; Miller G.A. Languare and communication. – New York, 1951; Chomsky N. Languare and mind. – New York, 1972; Fillmore Ch.J. Some thoughts on the boundaries and components of lingvistics; Jackendorf R.C. Semantics and cognition. – Cambridge, 1983; Lakoff Robin. Languare and Woman's Place. – New York: Harper and Row, 1975. – 372 p.;
Лакофф Дж. Лингвистические гельштаты // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. – Москва, 1981.; Чейф У.Л. Значение и структура языка. – Москва, 1975.; Талми Л. Отношение грамматики к познанию // Вестник МГУ, сер. 9. Филология, 1999, № 1.; Лангаккер Р. Модель, основанная на языковом употреблении// Вестник МГУ, сер. 9. Филология, 1997, № 4, 6.

[3] Григорян А.А. Дискурс и гендер // Гендер: язык, культура, коммуникация: докл. 3-й Междунар. Конф. – Москва, 2003. – С.36-38.; Зыкова И.В. Гендер – конструкт фразеосферы русской и английско культур (о проблеме межкультурного общения) // Гендер: язык, культура, коммуникация: докл. 3-й Междунар. Конф. – Москва., 2003. – С.50–51.; Гришаева Л.И. Дискурсивный фактор «гендер» и организация информации в тексте// Гендер: язык, культура, коммуникация: докл. 3-й Междунар. Конф. – Москва, 2003. – С.38-39.; Халеева И.И. Гендер как интрига познания // Гендер как интрига познания: сб.статей. – Москва, 2000. – С. 9–18.; Городникова М.Д. Гендерный аспект обращений как фактор речевого регулирования // Гендер как интрига познания: сб.статей. –Москва, 2000. – С.81–92.

konseptosfera muammosi N.D.Dmitriyeva, T.Y.Zaglyadkina[4]larning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbek tilshunosligida D.V.Popov[5], G.Sh.Ataxanova[6], M.M.Jurayeva[7] va boshqalar antroposentrik tilshunosliknng turli yo‘nalishlarida faol ilmiy tadqiqotlar olib borgan. N.M.Djusupov tomonidan badiiy matnda ramzni aks ettirishning lingvokognitiv jihati tadqiq qilingan bo‘lsa, D.V.Popov individning til ongida qo‘llanilgan kognitiv tuzilmalarni ta’riflagan. Shu qatorda O.T.Nosirovning dissertatsiyasini alohida ta’kidlab o‘tish lozim, unda kognitiv tilshunoslikdagi konseptosfera aniqlandi va turli tizim tillarida qo‘llaniladigan “yil fasllari” konseptosferasi misolida batafsil ko‘rib chiqildi[8].

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar milliy konseptosferani yoritish masalalariga jiddiy hissa qo‘shishgan bo‘lsa-da, biroq o‘zbek va rus paremiologik materialida “ayol” konseptining qiyosiy o‘rganilish yetarlicha muammosi hal etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot rejalariga muvofiq “Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek va rus paremiologik fondidagi “ayol” konsepti ishtirok etgan maqollarning denotativ ifoda shakllariga aniqlik kiritish hamda ularning freym tahlilini amalga oshirish orqali universal va milliy o‘ziga xos jihatlarini belgilashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

– o‘zbek va rus tilshunosligida konseptlar tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni qiyosiy o‘rganish;

– o‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konseptosferasiga kiruvchi leksik birliklarni yig‘ish va tahlil etish;

– o‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konseptining milliy madaniy o‘ziga xos jihatlarini yoritish.

– o‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konseptlari nominativ maydonlarining yadroviy va periferik zonalarini aniqlash;

– o‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konseptining freym tuzilmasini aniqlash.

---

[4] Дмитриева Н.М.Этическая концептосфера русской языковой картины мира: диахронический аспект: автореф. дисс. … докт. филол. наук. – Москва, 2017. – 34 с.; Заглядкина Т.Я. Академическая концептосфера в немецкой и русской лингвокультурах. – Волгоград, 2009. – 25 с.

[5] Попов Д.В. Языковая личность в когнитивной лингвистике //Ilm sarchashmalari, 2023. № 2. – С. 169 – 171.

[6] Атаханова Г.Ш. Номинации «возраст человека» в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологических аспектах (на материале английского языка): Автореф. дисс. … канд.филол.наук. – Ташкент, 2006. – 20 с.

[7] Jurayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlar: Filologiya fanlar doktori (DSc) avtoreferati. – Toshkent, 2017. – B.87.

[8] Носиров О.Т."Отражение концептосферы "Времена года" в лингвистической картине мира русского и узбекского языков,". Автореф. дисс… доктора философии (PhD) по филологическим наукам. Бухара. 2023 г. –С. 18.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “ayol” konsepti ishtirok etgan o‘zbek va rus xalq maqollari tanlab olindi.

**Tadqiqotning predmeti** taqqoslanayotgan tillar maqollarida “ayol” konsepti denotativ ifoda shakllarini aniqlash va freym tahlilini amalga oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash, freym tahlil, komponentli tahlil, qiyosiy-tipologik, kognitiv, statistika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konseptini tahlil qilishda lingvistik, folkloristik va lingvokulturologik yondashuvlar o‘rganilib, ularning kesishuv nuqtalari, umumiy tamoyillari aniqlangan;

o‘zbek va rus xalq maqollarida verballashgan “ayol” konseptining denotativ ifoda shakllari (*qiz, xotin, ona, beva, yanga, buvi, qaynona, kelin* va hokazo; *мать, жена, баба, теща, девушка, сваха* ва ҳоказо) qiyosiy-lingvokognitiv jihatdan tahlil qilinib, ularning universal (onalik, oila tayanchi, tarbiyachi, mehr-muhabbat manbayi, fidoyilik) hamda milliy-madaniy xususiyatlari (hayo, iffat, kamtarlik, itoatkorlik, sharqona odob; верность, каприз, выдержка, трудолюбие, ум и практичность) dalillangan;

o‘zbek va rus paremiologik fondida “ayol” konseptini tashkil etuvchi leksik birliklar (Chiroyli *qiz*ning nozi bor; *Qiz* ko‘ngli – qizigan tandir; *Ona* mehridan ota qahri ortiq; *Ona*ning bir qo‘li beshikni, bir qo‘li dunyoni tebratadi; *Xola*mning oshini shirin qilgan pochchamning go‘shti; Xotin – erga oyina va hokazo; Стели бабе вдоль, она меряет поперек; Мать плачет не в горсть, а в пригоршню; Чего девушка не знает, то ее и красит; Тёщин язык, куда не завались, достанет; Женское сердце – что ржа в железе; Сын – гордость отца, а дочь – радость отца) tizimlashtirilib, ularning konseptual-semantik xususiyatlari va milliy tafakkurdagi o‘rni belgilangan;

o‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konsepti nominativ maydonining yadroviy (*qiz, ona kelin, kundosh*; *баба, вдова, теща, мать*) va periferik zonalari (yor, amma-xola, ayol, yanga va hokazo; *женщина, невеста, дочь, свекровь, бабушка* va hokazo)aniqlanib, konseptning tilda ifodalanish mexanizmlari asoslangan;

o‘zbek va rus xalq maqollaridagi “ayol” konseptini ifodalovchi paremiyalar asosida ilk bor maxsus elektron lug‘at yaratildi hamda unda ayolning ijtimoiy, oilaviy, axloqiy va madaniy obrazlarini aks ettiruvchi maqollar konseptual-semantik jihatdan tizimlashtirildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvomadaniy, emotsional va kognitiv munosabatlar, inson tafakkurining atrof-olam bilan munosabati manzarasining lisonda ifodalanishi, konsept va uning turlari kabi masalalar tadqiqida, turli izohli lug‘atlarni yaratishda vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oily ta’lim muassasalarining filologiya fakultetlarida “Leksikologiya”, “Stilistika”, “Qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik”, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘qitishda, “Kognitiv tilshunoslik”, “Gender tilshunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanlari bo‘yicha maxsus kurslar tashkillashtirishda, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalar, darslik va o‘quv

qo‘llanma yozishda, rus va o‘zbek paremiologik lug‘atlarni tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv hamda qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar lingvistik tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tipologik, kognitiv-semantik, konseptual, freym tahlil, statistik tahlil metodlari bilan asoslanganligi, shuningdek, xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konseptining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilini amalga oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

antroposentrik yondashuvning milliy ma’naviy merosni tahlil qilishdagi roli ilmiy asosda ochib berilganligi, antroposentrizm insonning tildagi bilish faoliyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi markaziy omil sifatida talqin qilinib, xalq maqollari misolida uning til, ong va madaniyat bilan chambarchas bog‘liqligi, o‘zbek va rus xalq maqollarida “ayol” konseptini tahlil qilishda lingvistik, folkloristik va lingvokulturologik yondashuvlar o‘rganilib, ularning kesishuv nuqtalari, umumiy tamoyillari aniqlangan doir natija va xulosalardan 2022-2024-yillarda Buxoro davlat universitetida bajarilgan Germaniya akademik almashinuv xizmati DAAD tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348-son “European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va G‘arb tadqiqotlari” nomli loyiha doirasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 18-iyundagi 06/3902-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan asosiy ilmiy xulosalar loyiha doirasida Markaziy Osiyo va Yevropa madaniy kodlari, gender stereotiplari, xalq donishmandligi orqali ayol obrazining shakllanishi, madaniyatlararo muloqotda folkloriy qadriyatlarning o‘rni kabi yo‘nalishlarda olib borilgan qiyosiy tahlillarda qo‘llanilgan;

o‘zbek va rus xalq maqollaridagi “ayol” konseptining denotativ ifodalanish shakllari ilk bor qiyosiy tahlil etillib, ikki xalq folklorida “ayol” obrazining ijtimoiy rollari, ma’naviy qadriyatlar va turmush tarzi bilan bog‘liq konseptual xususiyatlari ilmiy jihatdan qiyoslanganligi, o‘zbek va rus xalq maqollarida verballashgan “ayol” konseptining denotativ ifoda shakllari qiyosiy-lingvokognitiv jihatdan tahlil qilinib, ularning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlari dalillangan doirasida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan PZ-202005236 “Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasidan foydalanilgan (2021-2022-yy.).(Buxoro davlat universitetining 2025-yil 10-noyabrdagi 01-11-05/6944 son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyaning amaliy va ilmiy tavsiyalari loyiha mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

“ayol” konseptining milliy konseptosferasi aniqlanganligi va uning madaniy-semantik qatlamlari tizimlashtirililganligi, o‘zbek xalq maqollaridagi “ayol” konsepti orqali jamiyatdagi ayol obrazining milliy, axloqiy va estetik mezonlar

bilan bog‘liq jihatlari konseptosfera asosida ilmiy tavsif etilganligi, bo‘yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining “O‘zlikni anglash” ko‘rsatuvlari, Buxoro radiosining “Najot bilimda”, “Ijod zavqi” nomli eshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi” ning 2025-yil 17-iyundagi №01-09-137-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning ommabopligi ta’minlangan;

dissertatsiiyadagi ayol obrazi orqali aks etgan milliy dunyoqarash, ma’naviy qadriyatlar, bag‘rikenglik, insonparvarlik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalari “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining milliy manfaatlar, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni asrashga qaratilgan dasturiy maqsadlari bilan uyg‘un ravishda targ‘ibot ishlariga tatbiq etilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Buxoro viloyati Kengashining 2026-yil 16-iyundagi 01/1-son ma’lumotnomasi). Natijada aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida milliy qadriyatlarga hurmat, gender madaniyati va millatlararo totuvlik g‘oyalarini mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan;

milliy dunyoqarash, ayolning oila va jamiyat hayotidagi o‘rni haqidagi qarashlar hamda xalq maqollarida mujassam bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ayyniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatdagi nufuzini mustahkamlash hamda oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish borasidagi fikr-mulohazalar Buxoro viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi tomonidan aholi o‘rtasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan (Buxoro viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasining 2026-yil 20-iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, Buxoro viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi tizimidagi targ‘ibot-tashviqot, ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy loyihalar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 13 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Oliy attestasiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan иборат. Ishning umumiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, maqsadu vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e’lon qilinganligi va ishning tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Antroposentrizm–hozirgi zamon tilshunoslik fanining muhim yo‘nalishi”** deb sarlavhalangan va ikki fasldan iborat. “*Antroposentrik yo‘nalganlik shaxs bilish faoliyatining vositasi va mahsuli sifatida*” nomli birinchi faslda antroposentrizm, diskursga oid mahalliy va xorij olimlarining qarashlari, atnroposentrizm tamoyili bo‘yicha turlicha yondoshuvlar tahlil etilgan.

Tadqiqotchilar ilmiy paradigma tushunchasini ham, ularning nomlarini ham, miqdoriy tarkibini ham turlicha ta’riflaydilar. Antroposentrizm tamoyiliga ko‘ra, til inson, uning faoliyati va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi. Rus tilshunosligida “tildagi inson” yoki boshqacha aytganda antroposentrizm tamoyili ancha oldin qaror topgan. V. Fon Gumboldt tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar A.A. Potebnyaning ilmiy izlanishlarida ham o‘z aksini topgan. Olim til taraqqiyoti haqida fikr yuritar ekan, u V.Fon Gumboldtga ergashib tilning antroposentrik xususiyatini quyidagicha ta’kidlaydi: “Aslida til faqat jamiyatda rivojlanadi va bunda inson har doim o‘zi mansub bo‘lgan butunning, aynan o‘z qabilasi, xalqi, insoniyatning bir qismi bo‘lgani uchungina emas, nafaqat ijtimoiy korxonalar imkoniyatining sharti sifatida o‘zaro tushunish zarurati tufayli, balki inson o‘z so‘zlarining tushunarliligini boshqalarda sinab ko‘rgandagina o‘zini o‘zi tushunishi tufayli ham rivojlanadi”[9].

Antroposentrizm tamoyilining dastlabki tezisini E. Benvenist o‘zining “Umumiy tilshunoslik” (2002) fundamental asarida shakllantirgan. Zamonaviy tilshunoslik antroposentrizm tamoyiliga asoslanishi, til hodisalarining inson omilini hisobga olgan holda o‘rganilishi xususida Y.D. Apresyan, N.D.Arutyunova, Y.N. Karaulov, G.V. Kolshanskiy, Y.S. Kubryakova, V.A.Maslova, B.A. Serebrennikov, Y.S. Stepanov va boshqalarning ishlarida ta’kidlar mavjud[10].

Lingvistik tadqiqotlarda antroposentrik paradigmaning dastlabki ta’rifi “so‘zlovchining tildan foydalanish jarayonida uni o‘zlashtirish qobiliyati”ni tan olishdir. Antroposentrik paradigmaga o‘tish yangi lingvistik fanlar: kognitiv tilshunoslik, lingvopolitologiya, lingvopersonologiya, lingvokulturologiya, matn lingvistikasi, lingvopragmatika, kommunikativ tilshunoslik kabi fanlarning paydo bo‘lishiga yordam berdi. Antroposentrik jihat til va tafakkur muammolari, zamonaviy og‘zaki nutq, leksikologiya va leksikografiya, kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, olam lisoniy manzarasini o‘rganishning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ko‘plab zamonaviy tadqiqotlarga xosdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plab mualliflar “matn” va “diskurs” tushunchalarini farqlaydilar. “Matn” “kommunikatsiya birligi: 1) tugallanganlik, 2) yaxlitlik, 3) bog‘liqlik, 4) leksik, grammatik va stilistik jihatdan rasmiylashtirilgan og‘zaki yoki yozma ravishda qayd etilgan nutq asari” deb ta’riflanadi.

Ontologik nuqtayi nazardan antroposentrizm bevosita “insonga xoslik” namoyon bo‘ladigan ayrim lisoniy birliklarning xususiyati sifatida tushuniladi. Buning ostida statik holatga qarshi dinamik, obyektiv tizimga qarshi subyektiv, hissiy xususiyatga qarshi ratsionallik turadi. Bu turdagi tadqiqotlar “inson omili”ni

[9] Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва.: Искусство, 1976. – С. 614.

[10] Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. Избранные труды: в 2-х т. – Москва.: Восточная литература, РАН, 1995. – С. 472

an’anaviy tizimli-strukturaviy muammolarga integratsiyalashuvining nafaqat mumkinligi, balki yangi paradigmaning paydo bo‘lishidan dalolat beradi. Yondashuvning yangiligi shundaki, til turli birliklarida maxsus xususiyatlar aniqlanib, ularning ro‘yxati ochiqligicha qoladi. Bunga egosentrik elementlar (olmoshlardan tortib propozitsial qurilishli fe’llargacha), ekspressiv-emotsional, baholovchi va obrazli leksika, frazeologiya, ritorik so‘roq, pleonazm va boshqa turli hodisalarning kirishi e’tirof etiladi. Tilning ayrim elementlari obyektiv voqelikni aks ettiradi va shuning uchun ham “insoniylik o‘lchovi” xususiyatiga ega emas, tilning boshqa elementlari esa subyektiv voqelikni aks ettiradi va shu bois antroposentrik hisoblanadi.

Antroposentrik tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlar ko‘lami juda keng: u insonni til doirasida va tilni inson manfaatlari qamrovida o‘rganish va tasvirlashga qaratilgan barcha sohalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Bilim inson intellektini rivojlantiruvchi, hayot kechirish uchun zarur manbadir. Bilim insonga turli g‘oyalarni shakllantirishga, ularni lisoniy ifodalashga, olamda sodir bo‘layotgan voqealarni qabul qilib tahlil qilishga va turli obyektlardan olingan ma’lumotlarga javob qaytarishga yordam beradi. S.G.Vorkachyov ta’kidlashicha, “Konseptga oid turli fikrlarning majmuasi uning jamoaviy bilim birligi ekanligini isbotlaydi. Bilim, o‘z navbatda, til birliklari yordamida ifoda topadi va etnomadaniy xususiyatlarga ega bo‘ladi[11]”.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Konsept madaniyat, ong va til sohasidagi ilmiy tadqiqotlar integratsiyasi sifatida”* deb nomlangan.

Bugungi kunda antroposentrik yo‘nalishda kuzatishlar olib borish zamonaviy tilshunoslikning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Antroposentrik tahlil ko‘rinishlari, xususan, matn tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo‘nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o‘rganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog‘liqdir. Bu esa konsept tushunchasi bilan aloqador bir qator masalalarni ko‘rib chiqishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasini o‘rganishda ikkita asosiy – kognitiv va lingvomadaniy yondashuv mavjud. Ushbu yondashuvlar uchun til va madaniyat o‘rtasidagi so‘zsiz aloqani tan olish umumiy hisoblanadi. Bu boradagi fikrlar xilma-xilligi esa konseptni shakllantirishda tilning rolini o‘zgacha talqin qilish bilan bog‘liq. Lingvomadaniyatshunoslik zamonaviy bilimlar tizimida nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, uning nazariy va metodologik asoslari shakllanish bosqichida turibdi. Lingvokulturologiya madaniyat va uni til yordamida yaratadigan shaxsning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi.

O‘zbek tilshunosligida tahlil va talqin vositasi hamda termin sifatida konsept atamasi 1990-yillardan boshlab qo‘llanila boshlandi. Bugungi kunga qadar ko‘plab

[11] Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. - №1. – С.64–72.

olimlar bu borada o‘z tadqiqotlarini olib borgan bo‘lsa-da, yakdil bir qaror sifatida uning aniq ta’rifini berishgan emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning yadrosi sifatida takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, oliy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tushunchaga juda ko‘plab olimlar o‘zlarining ta’riflarini berishgan. Konsept – tushuncha – so‘z munosabati. *Konsept* tushunchasi mavhum hodisa bo‘lganligi sababli uni aynan bir birlikning mavjud bo‘lmagan, moddiy ko‘rinish aks etmagan, balki ongimiz, tafakkurimiz orqali hosil qiladigan ma’nolar jamlanmasi sifatida baholaymiz.

*Konsept* tushunchasini aniqlashda bir nechta yondashuvlar mavjud. Konseptning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uchun konseptual va terminologik metatil apparatining o‘zini belgilash, *atama* va *konsept*ning umumiy va turli ta’rif, talqinlarini aniqlash lozim.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, ***konsept inson ongida saqlanadigan, til va madaniyatda o‘z ifodasini topadigan mavhum hodisadir***.

Mavjud talqinlar nafaqat bir-biriga zid, balki aniqlanayotgan hodisaning ko‘pqirrali va ko‘pligi tufayli o‘zaro bog‘liqdir.

Konsept haqida fikr yuritib, turli ilmiy soha vakillari uning ko‘p qirraliligi, uni tadqiq qilishning murakkabiligi va fandagi integratsion rolini ta’kidlashlari, albatta, bejiz emas. G.G. Slishkin ta’kidlaganidek: “Konsept madaniyat, ong va til sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni bog‘laydigan birlikdir, chunki konsept xalq madaniyati va ularning tili bilan bog‘liq bo‘lib, ongga tegishlidir”.

Darhaqiqat, konsept nafaqat semantik va konseptual, balki subyektiv idrokni ham o‘z ichiga oladi. Konsept tufayli ma’lum bir xalqning mentalitetini tushunish, alohida shaxsni anglash mumkin. Konsept odamlar ongida saqlanadi va til orqali, shuningdek, noverbal shaklda imo-ishoralar va yuz harakatlari yordamida ifodalanadi.

Umuman olganda, *konsept* atamasini nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki boshqa sohalarda ham qo‘llash mumkin, biroq bu atama kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi. Kognitiv tilshunoslikdagi asosiy tushuncha – konsept haqida turli olimlarning fikrlarini o‘rgangan holda konseptning ta’rifi bo‘yicha yakdil xulosaga kelinmagani ma’lum bo‘ldi. Ko‘rinadiki, o‘rganilayotgan tillar madaniyatida “ayol” konsepti muhim ahamiyatga ega va tadqiq etilayotgan tillarda ushbu konseptning ifodalovchilari o‘zaro farqlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek va rus xalq maqollaridagi “ayol” konseptining denotativ ifoda shakllari”** deb nomlangan[12] va uning birinchi faslida *o‘zbek va rus xalq maqollarida ayolning ijtimoiy roli* tahlilga tortilgan.

[12]Ishda “ayol” konseptining denotativ ifoda shakllari sifatida o‘zbek tilida 27 ta (qiz, ona, xotin, kelin, kundosh, yor, amma, xola, opa, singil, qaynisingil, qari qiz, yanga, ayol, qaynona, beva, begoyim, yalmog'iz, ovsin, o‘ynash, kampir, kelinoyi, buvi, egachi, enaga, qaynegachi, qo‘shxotin, doya); rus tilida 17 ta (жена, баба, мать, дева/девка/девушка/, теща, невестка/невеста, женщина, дочь, свекровь, бабушка, мачеха, сваха, сестра, золовка, тетя, сноха, вдова) leksik birlik aniqlandi va tahlilga tortildi.

“Erkak-ayol” oppozitsiyasining ikki a’zosidan “ayol” komponenti markerlangan. Shu munosabat bilan har qanday madaniyatning eng muhim tayanch konseptlaridan biri “ayol” konseptidir. Insonning ma’lum bir jins vakili sifatidagi ongi ayollik fazilatlari haqidagi stereotipik tasavvurlar ta’sirida shakllanadi. Xalqning lisoniy ongida saqlanib qolgan ayol obrazini maqollar tadqiqi orqali tahlil qilish mumkin, chunki ularda xalqning amaliy tajribasi va uning muayyan hayotiy hodisalarga bergan bahosi qayd etilgan. Shunday qilib, o‘zbek va rus ayollari obrazini tahlil qilish maqsadida jami 1211 ta maqol (806 ta o‘zbek va 405 ta rus) tanlab olindi.

Maqollarda ayolning shaxsiy xususiyatlari bilan bir qatorda uning ijtimoiy vazifalari ham ifodalangan. Shu bilan birga, ayolning shaxsiy xususiyatlari uning ijtimoiy rollari bilan bevosita bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan *ayol* obrazini tadqiq etishni uning ijtimoiy rollaridan boshlash maqsadga muvofiq ko‘rinadi. O‘zbek xalq maqollarida ayolning quyidagi ijtimoiy rollari mavjud: *qiz, ona, xotin, kelin, qari qiz, beva, qaynona, buvi, ovsin* va boshq. Rus xalq maqollarida ayolning ijtimoiy roli quyidagicha taqdim etilgan: *дева/девка/девушка/, жена, мать, мачеха, дочь, теща, вдова, свекровь, бабушка, золовка*.

Olib borilgan tahlil jarayonidan ma’lum bo‘lishicha, o‘zbek tilida *xotin* va *qiz* ijtimoiy rollari eng katta nominativ zichlikni tashkil etadi. Rus tilida esa ayolning ijtimoiy roli nuqtayi nazarida *жена* va мать nisbatan katta nominativ zichlikni namoyon qildi. Shuningdek, o‘zbek tilida *махеча* (o‘gay ona) va rus tilida kundoshlik tushunchalari ishtirok etgan maqollar mavjud emasligi qayd etildi va mazkur holat, avvalo, diniy e’tiqod va milliy mentalitet xususiyatlariga bog‘liqdir, degan xulosaga kelindi.

Rus xalq maqollarida tahlilni *turmushga chiqmagan ayol* rolidan boshlash maqsadga muvofiq. Rus maqollarida bu vazifa *девка/дева/девушка***,** o‘zbek maqollarida esa, asosan, *qiz* leksemasi orqali ifodalangan. Stereotip tasavvurlarga ko‘ra, turmushga chiqmagan ayol rus maqollarida iloji boricha tezroq turmushga chiqishga intiladi:

*Девушка плачет - замуж хочет.*

*Хот за старика, лишь бы в девках не остаться.*

O‘zbek xalq maqollarida qizlarning turmushga chiqishga intilishi yaqqol ifodalangan maqollar uchramaydi. Qolaversa, o‘zbek madaniyatida turmush qurish masalasi qizlarning o‘zlari tomonidan muhokama qilinishi uyat sanaladi. Turmushga chiqmagan qizning kamtarlik, itoatkorlik, uzlatparastlik kabi ijobiy xususiyatlari har ikki tildagi maqollarda o‘z ifodasini topgan.

*Xotin* maqomi har ikkala tilning maqol fondlarida nisbatan katta nominativ zichlikka ega, chunki bu ayolning eng muhim ijtimoiy ahamiyatga ega jihatidir. Aynan *xotin* maqomida ayol eng ko‘p ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shunday qilib, o‘zbek va rus paremalariga ko‘ra, *xotin* maqomi quyidagi holatlarda ijobiy baholanadi: 1) uy bekasi; 2) aqlli, go‘zalligi va iste’dodi cheklanmagan; 3) erga vafodorlik, aqllilik va xushfe’llik. Yuqoridagilar bilan bir qatorda ham o‘zbek, ham rus xalq maqollarida xotinning murosakorligi va kelishuvchanligiga alohida o‘rin ajratilgan. Maqollar tahliliga ko‘ra, ayolga xos salbiy xislatlar ham ikkala xalq og‘zaki ijodida tegishlicha ifoda etilgan. Xususan, quyidagi salbiy jihatlarga e’tibor

qaratilgan: 1) qaysarlik va eriga bo‘ysunmaslik; 2) aqli, go‘zalligi va iste’dodi cheklangan; 3) badfe’llik va janjalkashlik. Shuni ham ta’kidlash lozimki, o‘zbek xalq maqollaridan farqli o‘laroq rus xalq maqollarida erning xotiniga nisbatan qo‘l ko‘tarish huquqi aks etgan.

Shubhasizki, jamiyatda eng ahamiyatli ijtimoiy rollardan biri *ona*ga tegishlidir. Aksariyat maqollarda onaga faqat ijobiy sifatlar xosdir. Bunga, avvalo, donolik, mehribonlik va fidoyilik kiradi. Amalga oshirilgan tahlil davomida o‘zbek xalq maqollarida onaning salbiy sifatlari faqatgina bolasini ortiqcha erkalatishi va nomaqbul namuna ko‘rsatishi bois qayd etilganligi ayonlashdi. Maqollar tarkibida *o‘gay ona* tushunchasi tahliliga ko‘ra aytish mumkinki, o‘zbek xalq maqollarida o‘gay onani ifodalovchi maqollar deyarli uchramaydi: Bundan farqli ravishda, rus xalq maqollarida o‘gay onani tavsiflovchi 13 ta maqol borligi aniqlandi va ularning barchasi salbiy xususiyatga ega.

*Qiz*ning ijtimoiy roli ikkala tilda ham nisbatan kichikroq nominativ zichlikka ega, chunki, odatda, o‘zbek va rus xalqi an’analariga muvofiq, turmushga chiqqan qiz ota uyidan ketib, alohida yoki erining xonadonida yashagan. Shu asosda o‘zbek va rus xalq maqollarida qiz oilaning vaqtinchalik a’zosi sifatida ko‘rib chiqilgan. O‘zbek xalq maqollarida qiz bolaning tug‘ilishi sarf-xarajatlar bilan birga kelishi ifodalangan. Zero, turmushga uzatiladigan qizga sep tayyorlash va uni qimmatbaho sovg‘alar bilan kuzatish milliy an’analar qatoriga kiradi.

Bevaning ijtimoiy roli ikkala xalq maqollarida ham yetarlicha o‘rin ajratilgan. Tahlil davomida “вдова” leksemasi ishtirok etgan 24 ta rus xalq maqollari borligi aniqlandi, shundan 18 tasi ijobiy, 6 tasi salbiy semaga ega. Jumladan, mazkur maqollarda bevaning mehnatkashligi, sarishtakorligi va jabrdiydaligi, uning himoyasizligi va musibatda qolganligi ijobiy ma’noda ifodalangan. Shu bilan birga, bevaning murosasizligi, badfe’lligi va jabrdiydaligi mazkur maqollar guruhida salbiy ma’noda aks etgan. Rus ayoli uchun erini yo‘qotish, odatda, katta qayg‘u hisoblangan, chunki erkak yordamisiz ro‘zg‘or yuritish juda qiyin bo‘lgan. Agar beva ayolning o‘g‘illari qolgan bo‘lsa, ayol mol-mulkka egalik qilish huquqiga ega bo‘lmagan, chunki o‘g‘illar merosxo‘r hisoblangan.

O‘zbek va rus xalqlarining oilaviy-maishiy munosabatlarida *qaynona*ning roli muhim o‘rin tutadi. Rus madaniyatida теща – xotinning onasi, nikoh natijasida paydo bo‘lgan qarindosh. U ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarga ega. O‘zbek tilida xotinning onasi ham, erning onasi ham bir so‘z bilan qaynona deyiladi. Har ikkala tilda *qaynona*ga nafaqat salbiy, balki ijobiy xususiyatlar ham berilgan. O‘zbek maqollarida qaynona-kelin, rus xalq maqollarida теща-зять munosabatlari aks etgan. O‘zbek xalq madaniyatida qaynona keliniga mehribon va g‘amxo‘r bo‘lishi mumkin.

*Kelin* roliga ham o‘zbek, ham rus xalq maqollarida yetarlicha o‘rin ajratilgan. O‘zbek tilida kelinning mehnatkashligi, farosatliligi, mehribonligi alohida ta’kidlangan. Shu bilan birga, o‘zbek xalq maqollarida bir uyda kelinlar sonining ko‘pligi salbiy oqibatlarga olib kelishi alohida qayd qilingan. Rus xalq maqollarida yosh kelinning er uyidagi og‘ir qismati aks ettirilgan, chunki uning qarindoshlari uchun u, birinchi navbatda, ishchi kuchi hisoblanadi.

*Buvi* roli kichik nominativ zichlikka ega bo‘lib, u o‘zbek va rus maqollarida ham o‘z aksini topgan. Buviga uning nabiralariga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq

bo‘lgan ijobiy xususiyatlar beriladi. U g‘amxo‘r, saxiy va mehribon keksa ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin rus xalq maqollarida *buvi* maqomi salbiy jihatlari bilan ko‘zga tashlanadi. Masalan, erini boshqarish, buyruq berish istagi. Shuningdek, ochko‘zlik, yulg‘ichlik kabi salbiy xususiyatlariga ham e’tibor qaratilgan. Rus maqollarida buvining pulga muhtoj bo‘lgan kambag‘al va keksa ayol rolini mohirona o‘ynashi ham aks etgan. Shunday qilib, ayolning jamiyatdagi barcha ijtimoiy rollarini ko‘rib chiqib, ikki madaniyat maqollarida “ayol” konseptining ijtimoiy rollari juda xilma-xil degan xulosaga kelish mumkin.

